

**LINIYA VA TRANSFORMATORLARDA ELEKTR ENERGIYA  
ISROFI**

*Elektr energetikasi yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

*Odilov Alisher Jahongir o‘g‘li*

*Andijon davlat texnika insitituti*

*Elektr va Energetika muhandisligi kafedrasi o‘qituvchisi*

*Ilmiy raxbar:Abdixoshimov Muslimbek*


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada elektr tarmoqlari va transformatorlardagi energiya isrofi masalalari ko‘rib chiqilgan. Energiya isrofini baholashning matematik modellari, grafik yondashuvlar, o‘rtacha kvadrat quvvat asosidagi va maksimal yuklamaga asoslangan usullar tahlil qilingan. Shuningdek, transformatorlardagi yuklamaga bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan quvvat isroflari haqida ma’lumotlar berilgan. Energiya samaradorligini oshirish, isroflarni kamaytirish va hisoblashlarni optimallashtirish ushbu ilmiy ishning asosiy maqsadidir.

**Kalit so‘zi:** Energiya isrofi, Elektr tarmoqlari, Transformator isrofi, O‘rtacha kvadrat quvvat, Maksimal yuklama, Yuklama grafigi, Salt ishlash quvvati,

**Asosiy qism**

Quvvat vaqt birligidagi energiya bo‘lganligi sababli tarmokdagi energiya isrofini quvvat isrofini tarmoqni berilgan yuklamada ishlagan vaqtiga ko‘paytirib aniqlash mumkin:

$$\Delta W = 3I^2Rt = \Delta Pt$$



## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

1-rasm. Ajratib ko'rsatilgan iste'molchining yillik yuklama grafigi uchun kuyidagi ifoda hosil bo'ladi [2-3]:

2-rasm. Pog'onali yillik yuklama grafigi iya isrofi

Quvvat isrofining ifodasini qo'ysak, u holda energiya isrofi uchun quyidagi ifoda hosil bo'ladi:

$$\Delta W = \int_0^T \left( \frac{P^2 + Q^2}{U^2} r \right) dt = \frac{r}{U^2} \int_0^T (P^2 + Q^2) dt = \frac{r}{U^2} \int_0^T S^2 dt \quad (3)$$

Bu yerda T-iste'molchining ulanish vaqt. Agar iste'molchi bir yil davomida ulanib turgan bo'lsa, ya'ni T-8760 soat bo'lsa, u holda yillik energiya isrofini aniqlash uchun 2-egri chiziq bilan chegaralangan yuzani aniqlash yetarlidir. Amalda yuklamalar kvadratini yillik grafigini kichik vaqtlar 11, 12, 13. oraliqlaridagi, S1, S2, S3... (3-rasm) yuklamalar qiymatiga tegishli bo'lgan pagonali taxminiy grafik bilan almashtirish mumkin. Unda yillik energiya isrofi kuyidagicha yig'indi ko'rinishida aniqlanadi:

$$\Delta W = \frac{r}{U^2} (S_1^2 t + S_2^2 t_2 + S_3^2 t_3 + \dots + S_n^2 t_n) \quad (4)$$

Tarmokdagi energiya isrofini aniqlashning keyingi usuli o'rtacha kvadrat quvvat qiymatlariga asoslangan usulidir (3-rasm). O'rtacha kvadrat quvvat shunday quvvat ki, u butun T vaqt davomida o'zgarmas bo'lib, liniyadan

oqib turganda yuz beruvchi energiya isrofi shu liniyada T vaqt davomida yuklama grafigiga muvofiq quvvat oqib turgandagiga teng bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda koordinat o'qlari,  $S_{ur.kv}^2$  va T bilan chegaralangan to'g'ri to'rtburchakning yuzasi koordinata o'qlari,  $S^2$  ning grafigi va T bilan chenaralangan figuraning yuzasiga teng bo'ladi [4-5].

$S_{ur.kv}$  ning qiymatini aniqlab, energiya isrofini kuyidagi ifodadan topish mumkin.

$$\Delta W = \frac{r}{U^2} S_{ur.kv}^2 * T \quad (5)$$

Yuqorida keltirilgan energiya isrofini aniqlash usullari bir qator kamchiliklarga ega bo'lib, faqat yuklamalar grafigi bo'lgandagina ishlatalishi

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

mumkin. Keng tarqalgan maksimal isroflar vaqt tushunchasiga asoslangan usulda energiya isroflarini hisoblash ancha soddadir.

Yuklamalarning yillik grafigi uchun (4-rasm) shunday  $T_{maks}$  vaqt ni topish mumkinki, bu vaqt davomida iste'molchi o'zgarmas  $S_{maks}$  yuklama bilan ishlab, tarmokdan qabul qiluvchi energiyasi u bir yil davomida yuklama grafigi  $S(t)$  bo'yicha ishlab tarmokdan qabul qiluvchi energiyaga teng bo'lsin [6- 7].

$$W = P_{maks} T_{maks} = S_{maks} \cos \varphi_{ur} T_{maks} = \cos \varphi_{ur} * \int_0^{i=8760} Sdt \quad (6)$$

Bu yerda soya Fur - yil davomida tahminan o'zgarmas deb qabul qilingan quvvat koeffitsientining o'rtacha qiymati;  $T_{maks}$  maksimal yuklamada ishlash vakti. Demak, (6) dan

$$T_{maks} = \frac{\int_0^{i=8760} Sdt}{S_{maks}} \quad (7)$$

Liniyadan uzatilayotgan yillik energiya mikdorini va maksimal aktiv quvvatni bilib, (6) ifodadan maksimal quvvatda ishlash vaqtini aniqlash mumkin:

$$T_{maks} = \frac{W}{P_{maks}} = \frac{W}{S_{maks} \cos \varphi_{ur}} \quad (8)$$

Har qanday iste'molchi o'zining maksimal yuklamada ishlash vaqt kattaligi bilan xarakterlidir. Hisoblashlarda bu kattalikni statistik ma'lumotlarga asosan qabul qilish mumkin [8-9].

Agarda ko'rileyotgan liniya uchastkasi orqali har hil  $R_{1maks}$ ,  $R_{2maks}$ ,  $R_{3maks}$  va ularga mos maksimal yuklamada ishlash vaqt  $T_1$   $T_2$   $T_3$  bo'lgan iste'molchilarga quvvat uzatilayotgan bo'lsa, unga isrofni aniqlash uchun uzatilayotgan energiyani o'rtacha qiymatini hisobga olgan holda, (8) formula bilan aniqlanadigan maksimal quvvatda ishlash vaqtining o'rtacha qiymatini olish lozim [14-15]:

$$T_{maks} = \frac{W}{P_{maks}} = \frac{P_{1maks} T_{1maks} + P_{2maks} T_{2maks} + \dots + P_{nmaks} T_{nmaks}}{K_p (P_{1maks} + P_{2maks} + \dots + P_{nmaks})} =$$

$$\frac{\sum_1^n P_{i.maks} T_{i.maks}}{K_0 \sum_1^n P_{i.maks}}$$

Bu yerda  $K_0$ -yuklamalar gruppasining grafigidan aniqlanadigan bir vaqtlik koeffitsienti. Po'lat o'tkazgichli liniyalarda energiya isrofini hisoblashda tokning o'zgarishi tufayli bo'ladigan aktiv qarshilikni hisobga olish zarur.

Transformatordag'i energiya isrofi. Transformatordag'i energiya isrofi ikki

qismidan tashkil topgan:

1. yuklamalarga bog'liq bo'lган isrof  $\Delta R_k \tau$ ,
2. yuklamalarga bog'liq bo'lмаган isrof  $\Delta R_s \tau$ .

Demak, 
$$\Delta W = \Delta P_s T + \Delta P_k \tau \quad (13)$$

Bu yerda T-transformatorni ishlash vaqtি (agarda transformator yil davomida ulangan bo'lsa, unda  $T=8760$  s).

Salt ishlash quvvat isrofi  $\Delta R_s$  transformatorдан oqayotgan quvvatiga bog'lik bo'lmay, balki berilgan transformatorning tuzilishiga bog'liq bo'lib, kuchlanish va quvvatning biror qiymatlarida o'zgarmas kattalikni tashkil etadi [16].

Qisqa tutashuv quvvat isrofi, ya'ni cho'lg'amda quvvat isrofi  $\Delta R_k$  qisqa tutashuv isrofining nominal qiymatiga teng bo'lmasdan, transformatorдан oqayotgan quvvatga bog'liq holda o'zgaradi. Shunday qilib, bu isrof quvvatlarning kvadratiga proportionaldir, ya'ni:

$$\frac{\Delta P_k}{\Delta P_{X,n}} = \frac{S_t^2}{S_{t,n}^2} \quad (14)$$

Bu yerda - transformatorдан okayotgan xaqiqiy quvvat;  $S_{t,n}$  transformatorning nominal quvvati.

Unda haqiqiy qisqa tutashuv quvvati kuyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta P_k = \Delta P_{X,n} \frac{S_t^2}{S_{t,n}^2} \quad (15)$$

$\Delta R_s$  va  $\Delta R_k$ ning qiymatlari transformatorlarning katalog ma'lumotlari sifatida qo'llanma jadvallarida keltirilgan.  $\tau$  ning qiymati  $T_{maks}$  va  $\cos\varphi$  ning qiymatlari bilan aniklanadi.

### **Adabiyotlar**

- 1.Жалилов, Рахимжон Равшанбек Угли. "МАГНИТНЫЕ НАНОЧАСТИЦЫ-ПОЛИМЕР ГИБРИДНЫЕ МАТЕРИАЛЫ." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.3 (2022): 704-709.
- 2.Alijanov D.D., Topvoldiyev N.A. (2021). SOLAR TRACKER SYSTEM USING ARDUINO. Theoretical & Applied Science, 249-253.
- 3.Alijanov D.D., Topvoldiyev N.A. (2022). PHYSICAL AND TECHNICAL FUNDAMENTALS OF PHOTOELECTRIC SOLAR PANELS ENERGY. Theoretical & Applied